

## SHERMUHAMMAD MUNISNING “SHUARO” G‘AZALINING BADIY- MA’NAVYI TAHLILI.

Abduvaliyeva Nozima Umarali qizi –  
Farg‘ona davlat universiteti 3-kurs  
23.86-guruh talabasi

**Kalit so‘zlar** Shermuhammad Munis, “Shuaro” g‘azali, Xorazm adabiy muhiti, badiiy tahlil, ma’naviy mazmun, tasviriy vositalar, timsol, g‘oya, adabiyotshunoslik.

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr Xorazm adabiy muhitining yetuk vakillaridan biri Shermuhammad Munisning “Shuaro” g‘azali badiiy jihatdan va ma’naviy mazmun nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. G‘azalda shoirning zamondosh shoirlarga bergan bahosi, san’atkorlik tamoyillari, adabiyotga bo‘lgan yuksak munosabati hamda g‘azaldagi tasviriy vositalar yoritib beriladi.

XIX asr Xorazm adabiy muhiti o‘zining boy ijodiy an‘analari bilan alohida ajralib turadi. Shermuhammad Munis o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning “Shuaro” g‘azali shoirlik mas‘uliyati, zamon va ijodkor o‘rtasidagi munosabatlarni yorituvchi muhim badiiy manba hisoblanadi. G‘azal shoirlarning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy-moddiy ahvoli va ma’naviy o‘rni haqida teran kuzatishlarga boy. Ushbu maqolada g‘azalning badiiy xususiyatlari, mazmuniy qatlamlari va g‘oyaviy yo‘nalishi ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

Shermuhammad Munisning “Shuaro” g‘azali shoirning o‘z davr ijtimoiy hayotiga bergan bahosi sifatida ahamiyatlidir. Dastlabki baytlarda shoir zamonaning og‘ir sharoitlarini tasvirlab, shoirlarning iztirobli hayot kechirishi, ularning ruhiy olami qanday jarohatlarga duch kelganini yoritadi. Shoir nazarida shoir jamiyatning sezgir qalbidir, uning she‘rlari esa firoq, iztirob va haqiqatning aksidir.

G‘azalda shoirlarni “quyosh”ga o‘xshatish orqali Munis ularning ma‘rifatparvarlikdagi o‘rnini yuksak ko‘rsatadi. Biroq zamonaning nohaqligi,

shoirlarning moddiy yetishmovchiligi, saroy tomonidan qadrlanmasligi ularning ijodiga to'sqinlik qiladi. Shoirning yuz xushomad qilib ham tirikchilik topa olmasligi, shoirning tahqirlanishi kabi holatlar o'tkir ijtimoiy tanqid sifatida namoyon bo'ladi.

Misol uchun birinchi baytni oladigan bo'lsak:

*Yutubon bu zamonda qon shuaro,*

*Nazm                    etar                    gavhari                    fig'on                    shuaro.*

ya'ni bu zamonda shoirlar qon yutib, fig'onini she'rlarida aks ettirmoqdalar degan ma'no chiqadi. To'rtinchi baytga qaraydigan bo'lsak:

*Yuz hushomad ila gadolig' etib,*

*Topa olmas yemakka shuaro.*

bu yerda shoirlar boylarning oldida yuz marta maqtovlar aytib, ularga yoqishga harakat qilsa ham baribir tirikchilik uchun non topolmaydilar deya yoritilgan.

Munis shoirning asl vazifasi madhiya aytish emas, balki dardni kuylash, haqiqatni aytish ekanini ta'kidlaydi. Shoirning dardi she'rga ko'chsa, u jamiyatda qo'rquv uyg'otishi — haqiqatning keskinligidan darak beradi. Shuningdek, shoirning ba'zan zarurat bilan maddohlik qilishga majbur bo'lishi og'riqli haqiqat sifatida tilga olinadi.

Umuman, g'azal shoirning jamiyatdagi o'rni, qadri, ma'naviy mas'uliyati haqida teran mulohaza yuritadi. Munis ijodida adolat, ma'naviyat va haqiqatparvarlik markaziy mavzu bo'lib, "Shuaro" g'azali ana shu g'oyalarni yorituvchi muhim asardir.

Munisning "Shuaro" g'azali shoirlilikning ma'nosi, ijodkorning jamiyatdagi o'rni va dardli taqdiri haqida chuqur falsafiy mushohadalar bilan yo'g'rilgan. G'azal shoirning ma'naviy olami, uning iztiroblari, ijtimoiy hayotdagi nohaqliklar va shoirlilik mas'uliyatini badiiy tarzda ochib beradi. Asarda shoirning haq so'zli, dardmand, haqiqatparvar obrazini yaratgan Munis o'z davri sharoitiga tanqidiy munosabat bildiradi. "Shuaro" g'azalining poetik va ma'naviy ahamiyati bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shermuhammad Munis. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
2. Yo‘supov Y. Munis va Ogahi merosi haqida tadqiqotlar. — Toshkent: Fan, 1985.
3. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2010.
4. Shamsiyev P. Mumtoz poetika asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
5. O‘zbek mumtoz adabiyoti bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. — Turli manbalar.